

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

UDK: 801.82:81'255:821.51:811.111

“ALPOMISH” DOSTONI INGLIZCHA TARJIMASIDA MUQOBILLIK MASALALARI

Asqarova Shaxnoza Kamolidinovna

PhD

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti doktoranti (DSc)

Tel: +998935935777

e-mail: shakhnozaaskarova2@mail.com

Orcid: 0009-0006-6892-4324

Annotatsiya: Mazkur maqola tarjimashunoslikda ekvivalentlikning o'ziga xos jihatlariga bag'ishlangan bo'lib, “Alpomish” dostoni inglizcha tarjimasidagi lingvistik birliklarni tahlilga tortilgan. Shuningdek, sintaktik ekvivalentlik tahlilining asosiy jihatlari, gapning turlarini, ularning tuzilishi va funksional ma'nosini asar doirasida o'rganishga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ekvivalentlik, doston, asliyat, tarjima asari, adabiy jarayon.

Аннотация: Данная статья посвящена конкретным аспектам эквивалентности в переводе, а также проведен анализ языковых единиц в английском переводе эпоса “Алпомиш”. Также дана информация об основных аспектах анализа синтаксической эквивалентности, исследования типов предложений, их структуры и функционального значения в рамках работы.

Ключевые слова: эквивалентность, эпос, своеобразие, переводческое произведение, литературный процесс.

PROBLEMS OF EQUIVALENCE IN THE ENGLISH TRANSLATION OF “ALPOMISH”

Doctoral student of Tashkent State University of Oriental Studies (DSc)

Abstract: This article is devoted to the specific aspects of equivalence in translation studies, and the analysis of linguistic units in the English translation of the epic “Alpomish” is carried out. Also, information on the main aspects of syntactic equivalence analysis, the study of sentence types, their structure and functional meaning within the framework of the work is given.

Key words: equivalence, epic, originality, work of translation, literary process.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION). Xalq og'zaki ijodi namunalari, ayniqsa dostonlarni xorijiy tillarga o'girish bugungi tarjimashunoslikning dolzarb masalalaridandir. F. f. d., prof. G'.Salomov tarjimaga quyidagicha ta'rif beradi: “Tarjima tilga yangi g'oyalar, fikrlar, tushunchalarni olib keladi. Jamiyatda yangicha ijtimoiy munosabatlar, qarashlarning qaror topishida xizmat qiladi. Adabiyotga yangi obrazlar, badiiy-tasviriy vositalarni armug'on etadi. Tarjima har qanday aloqalar zaminini tashkil etadi”. Zamonaviy konversiya nazariyasida “ekvivalentlik” termini nisbatan yaqinda qo'llanila boshlandi, deb ishoniladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).

P.M. Topper “ekvivalent” termini tarjima nazariyasiga qachon va qayerda kirganligi haqidagi fikrlar xilma-xilligini qayd etib, bu termin birinchi marta zamonaviy tarjimashunoslikda mashina tarjimasiga nisbatan qo'llanila boshlaganligini aniqladi va inson tarjimasiga “Tarjimaning

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

lingvistik jihatlarida haqida” (1959) maqolasida R. Yakobson tomonidan qabul qilinishi taklif qilingan¹, deya ta’kidlagan.

Kommunikativ munosabat tillararo muloqot jarayonida ishtirok etadigan barcha omillarni hisobga oladi. U tarjima qilinayotgan matn tarkibida mujassamlashgan ma’lumotlardan tashqari yana axborot beruvchining matn tashqarisida aks etgan muloqot maqsadini hamda tarjimonning bayon etilgan fikrni to’g’ri qabul qilishi uchun zaruriy ma’lumot, bilim va ko’nikmaga ega bo’lishini ham nazarda tutadiki, mazkur omillar tarjima tilida teng qiymatli kommunikativ ta’sirchanlik yaratish imkonini beradi. Tarjima jarayoniga bunday munosabat tarjima nazariyasini lingvistik tadqiqotning alohida mustaqil sohasi sifatida ajratish joizligini belgilaydi. R.Yakobson “keng tarqalgan tillararo kommunikatsiya amaliyoti, xususan tarjima faoliyati tilshunoslik fanining doimiy kuzatuvda bo’lishi lozim”² degan edi. Ekvivalentlikka semiotik yondashuvga asoslanib, R.Yakobson 1959 yilda e’lon qilgan “On Linguistic Aspects of Translation (Tarjimaning lingvistik jihatlarida haqida)” maqolasida bahs yuritadi. Shu kabi nazariya tufayli kelib chiqadigan turli tillarga oid so’zlar o’rtasidagi ma’nolarning ekvivalentligi muammosi har bir til doirasida bir-biridan u yoki bu darajada farq qiladi. Yakobson bu ekvivalentlikni “farq mavjudligidagi ekvivalentlik” deb ataydi³.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION).

Filolog va tarjimonlar tomonidan ko’p vaqtdan beri o’rganib kelinayotgan tarjimaning aniqligi muammosi hozirgi paytda boshqa terminlarda taqdim etilmoqda, ularning markaziy qismi “ekvivalentlik” atamasi hisoblanadi. Bu borada ekvivalentlik bilan bog’liq masalalar azaldan olimlar, tadqiqotchilar va tarjimashunoslar e’tiborini jalb qilib kelmoqda. Matn qaysi janrga tegishli bo’lishidan qat’iy nazar, u tarjimon tomonidan o’girilish jarayonida ko’pincha mutanosib ravishda leksik birliklarni saralashni taqozo etadi. Chunki V.N. Komissarov ta’kidlaganidek, “Zamonaviy tarjimashunoslikning markaziy tushunchalaridan biri bo’lgan ekvivalentlik tarjimaning eng muhim xususiyatini ochib beradi”⁴. Shunday ekan, tarjimashunoslar tomonidan qo’llab kelinayotgan termin “ekvivalentlik” ancha murakkab va ko’p qirrali tushuncha sifatida namoyon bo’ladi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Pirovardida, uning semiotik darajadagi ekvivalentlik haqidagi xulosasi “kod birliklari o’rtasida to’liq ekvivalentlik yo’qdir”. “Kod birliklari” deganda har qanday tarjima qilinishi mumkin bo’lgan birliklar sifatida tushunilishi mumkin, ular so’z, ibora, jumla yoki butun matn bo’lsin.

Shunday qilib, yangi – tarjimaning tilshunoslik fani tarkibida tadqiq qilinishi lozimligi haqidagi nuqtayi nazar vujudga keladiki, tarjima amaliyotini tadqiq qilish shu yo’l bilan olib borilgandagina tilshunoslikning ayni tarmog’i ko’proq taraqqiy etadi, takomillashadi. Lingvistik tarjima nazariyasining vazifasi tarjima jarayoni tizimi tarkibini aniqlash va shu asosda tarjima amaliyoti uchun zarur bulgan umumiy qonuniyatlarni muayyanlashtirishdan iboratdir.

“Lingvistik tarjima nazariyasi bir til matnining ikkinchi til matniga aylanishi qonuniyatlarini muayyan tartibga soladi, o’rganadi va modellashiradi”⁵. Aniqrog’i, tadqiqotchi tahlil paytida

¹ Топер П.М. Перевод в системе сравнительного литературоведения. М., 2000 С. 176.

² Jakobson R. On linguistic aspects of translation. In.: R. Brower (ed). On translation. New York. Oxford University Press, 1966. p. 234. 16 B.

³ Шы асар. Б. 114.

⁴ Комиссаров В.Н. Современное переводоведение. С. 134.

⁵ Н. Комиссаров. Лингвистика перевода. М., ИМО, 1980. с. 3.

nutqiy jarayonning birlamchi tilda tashkil etilishini va tarjima tilida unga kommunikativ jihatdan teng qiymatli nutqiy jarayonning yaratilishini kuzatib boradi. Birlamchi va tarjimon tomonidan yaratilgan matnlarning kommunikativ muvofiqligigina asl nusxada aks etgan axborotning adekvat qayta yaratilganligidan dalolat beradi.

Badiiy adabiyotdagi sintaktik ekvivalentlik matn tadqiqotining muhim jihatlaridan biridir. Bu tushuncha badiiy asarlarda qoʻllaniladigan jumla va iboralarning semantik va strukturaviy tomonlarini bildiradi. Vizual va pragmatik element sifatida sintaksis asarning yakuniy taassurotiga va estetik idrokiga sezilarli taʼsir koʻrsatishi mumkin.

Sintaktik ekvivalentlik. Sintaktik ekvivalentlik tahlilining asosiy jihatlaridan biri gapning har xil turlarini, ularning tuzilishi va funksional maʼnosini asar doirasida oʻrganishdir. Badiiy adabiyotda sintaktik ekvivalentlik hissiy keskinlikni yaratish yoki xarakter-xususiyatlarini taʼkidlash uchun qoʻllanilishi kuzatiladi. Mualliflar qahramonlar fikrining murakkabligini bildirish uchun uzun va burilishli jumalarni, shuningdek, voqealarning intensivligini yoki harakat tezligini bildirish uchun qisqa va oddiy jumalarni ishlatadigan misollarni topish mumkin. Masalan:

Elat bilan bolam, birga borasan,

Taqdiringda nima borin koʻrasan,

Oʻlmasang, bir kuni qaytib kelasan,

Qoʻngʻirot elda oʻynab davron surasan.

Oh urib toʻkarsan koʻzdan yoshingni,

Kelib koʻrarsan-da dengi-dushingni,

Qoʻngʻirot elda qolgan qarindoshingni,

Bir kun kelib qilarsan oʻtirishingni.

Uchqur kabi qanotingdan qayrilib,

Yugruk eding, tuyogʻingdan tayrilib,

Oʻn olti urugʻ Qoʻngʻirot eldan ayrilib,

Sen borarsan Qalmoq elga yoʻl yurib,

Necha kun tuz nasib Qalmoqda koʻrib,

Axir bir kun yana Boysinga kelib,

Oʻz elingda chalqib davronni surib.

Tarjimada:

My child, you will go together with your folks,

You will see what is in your fate,

If you don't die you will return some day,

You are sure to enjoy life in Qunghirost land,

*Saying woes, you shed tears from your eyes,
 When you come, you'll see your friends, mates.
 The relatives who were left in Qunghirod land,
 Some day you will come back and start living,
 Like a steed you will be deprived of your wings,
 You were a fast runner you slip down at tiptoe,
 You will be deprived of Qunghirod folk of sixteen tribes,
 You are going to Qalmoq's land covering the road on foot,
 For several days you are likely to see in Qalmoq land,
 Some day you are sure to come to Boysun land,
 In your own land you will enjoy life with pleasure.*

O'zbek tilidagi asliyatda qo'riyalangan qatorlar quyidagicha: a-a-a-a, b-b-b-b, v-v-v-v... Ingliz tilidagi tarjimada esa a-b-v-g... kabi bo'lib, bu o'rinda mutarjim asosiy e'tiborini so'zlarning o'zbek asliyatidagi kabi sodda va xalqchil so'zlardan foydalanishga qaratgani sababli satrlar qo'riyasi doston aslidagi kabi muvaffaqiyatli chiqmagan.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa o'rinda aytish mumkinki, sintaktik ekvivalentlikni tahlil qilishda metafora, anafora va parallelizmlarga ham e'tibor qaratish lozim. Bunday stilistik vositalar matnda ritm va uyg'unlikni yaratishga yordam beradi, shuningdek, muallif yetkazmoqchi bo'lgan asosiy g'oyalar va tasvirlarni ta'kidlaydi. Ekvivalentlik, jumladan, sintaktik ekvivalentlik har qanday badiiy asar tarjimasidagi unumdor tarjima hodisasi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш томлик. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2006. – Биринчи жилд. – 680 б.
2. Ашурова Д.У. Художественный текст в контексте национальной культуры // Linguistics-II. – Ташкент, 2011. – С. 15-17.
3. Бархударов Л.С. Очерки по морфологии современного английского языка. – М.: Изво литературы на ин. яз., 1975. – 156 с.
4. Балли Ш. Французская стилистика. – М.: Иностранная литература, 1961. – 394 с.
5. Бегматов Э.А. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985. – 254 б.
6. Саломов Ғ. Адабий анъана ва бадий таржима. – Тошкент: Фан, 1980. – 251 б.
7. Топер П.М. Перевод в системе сравнительного литературоведения. М., 2000. – 176 с.
8. Jakobson R. On linguistic aspects of translation. In.: R. Brower (ed). On translation. New York. Oxford University Press, 1966. p. 234. 16 B